

**ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYAVIY
JOZIBADORLIKNI OSHIRISH SARI: HUQUQIY VA IQTISODIY
ISLOHOTLAR TAHLILI**

X.Mirzaxmetova

*TDYU Xalqaro xususiy huquq
sho'basi katta o'qituvchisi*

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) — bu davlat tomonidan maxsus ajratilgan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralarga va alohida huquqiy rejimga ega bo'lgan hududlardir. Ushbu hududlar milliy va xorijiy kapitalni jalb qilish, yuqori texnologik ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish hamda eksport salohiyatini oshirish maqsadida tashkil etiladi. EIZlarning huquqiy mohiyati shundaki, ularda umumdavlat miqyosida amal qiladigan soliq, bojxona va valyuta tartibotlaridan farqli ravishda, investorlar uchun sezilarli darajadagi imtiyozlar va preferensiyalar majmuasi amal qiladi.

O'zbekistonda EIZlar faoliyatining huquqiy asosi mustahkam ierarxik tizimga ega. Bu boradagi eng asosiy hujjat **O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni** (2020-yil 17-fevraldagi O'RQ-604-son) hisoblanadi. Mazkur Qonun EIZlarni tashkil etish, ularning faoliyat muddati, boshqaruv tizimi va rezidentlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilab beradi. Shuningdek, **Soliq kodeksi** va **Bojxona kodeksining** tegishli moddalari EIZ rezidentlari uchun soliq stavkalarini pasaytirish va bojxona to'lovlaridan ozod etish mexanizmlarini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. 2026-yilgi Davlat dasturi esa ushbu qonuniy asoslarni yanada takomillashtirib, investorlar huquqlarini himoya qilishning yangi bosqichini boshlab berdi.

EIZlarning institutsional asoslarini tahlil qilar ekanmiz, birinchi navbatda huquqiy kafolatlarning barqarorligiga e'tibor qaratish lozim. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, investor uchun soliqning miqdoridan ko'ra, o'yin qoidalarining o'zgarmasligi muhimroqdir. Shu bois, 2026-yilgi islohotlar doirasida

"investitsiyaviy shartnoma daxlsizligi" prinsipi huquqiy jihatdan yanada kuchaytirildi. Qonunchilikka binoan, agar qonunchilikda investitsiya shartlarini yomonlashtiruvchi o'zgarishlar yuz bersa, investorga nisbatan 10 yil davomida dastlabki (shartnoma tuzilgan vaqtdagi) qonunchilik normalari qo'llanilishi (grandfather clause) kafolati amalda o'zining ijobiy natijasini bermoqda. Bu mexanizm xorijiy kapital egalarida O'zbekistonning huquqiy tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashning asosiy drayveridir.

Soliq va bojxona sohasidagi imtiyozlar arxitekturasini ham 2026-yilga kelib sifat jihatidan o'zgardi. Endilikda imtiyozlar barcha rezidentlarga bir xil emas, balki "kaskad" usulida, ya'ni kiritilgan investitsiya hajmi va yaratilgan yuqori texnologik ish o'rinlariga mutanosib ravishda taqsimlanmoqda. Masalan, 15 million dollardan ortiq investitsiya kiritgan korxonalar uchun foyda solig'idan 10 yil muddatga ozod etish tizimi joriy etilgan bo'lib, bu yirik transmilliy korporatsiyalarni jalb qilishda muhim vosita bo'lmoqda. Shu bilan birga, EIZ hududiga olib kirilayotgan texnologik uskunalar va xomashyolar uchun bojxona to'lovlarining "nol" darajaga tushirilishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannaxsini o'rtacha 20 foizgacha arzonlashtirish imkonini beradi. Bu esa O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarning tashqi bozorlarda, ayniqsa, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi (GSP+ tizimi doirasida) bozorlarida raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Prezident tomonidan kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha ilgari surilgan yangi tashabbuslar EIZ rezidentlari uchun yangi ufqlar ochmoqda. Ma'lumki, ishlab chiqarish barqaror o'sishi uchun uzoq muddatli va arzon moliyaviy resurslar zarur. 2026-yilda mahalliy korxonalarga, jumladan EIZ rezidentlariga ichki bozorda xorijiy valyutada obligatsiyalar chiqarishga ruxsat berilishi, investorlar uchun kurs tebranishi xatarlarini minimallashtiradi. Bu tizim orqali tadbirkorlar bank kreditlariga qaramlikni kamaytirib, to'g'ridan-to'g'ri aholi va institutsional investorlar mablag'larini jalb qilish imkoniga ega bo'lmoqda. Kelgusi yillarda EIZda faoliyat yurituvchi eng yirik korxonalarni bosqichma-bosqich xalqaro IPO (aksiyalarni birlamchi joylashtirish) jarayonlariga tayyorlash strategik vazifa

sifatida belgilangan.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash masalasi EIZlar kontekstida o'ziga xos ahamiyatga ega. Ba'zida "imtiyozli zonalar" nohalol tadbirkorlar uchun daromadlarni yashirish yoki soliqdan qochish maydoniga aylanib qolish xavfi mavjud edi. 2026-yilgi Davlat dasturi bu masalaga chek qo'yish uchun "raqamli nazorat" tizimini joriy etdi. Endilikda barcha bojxona va soliq jarayonlari, tovarlarning EIZ hududiga kirishi va chiqishi raqamli identifikatsiyalash tizimi orqali real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Tekshiruv jarayonlarida bodi-kameralarning majburiy etib belgilanishi esa tadbirkor va davlat organi o'rtasidagi munosabatlarni korrupsiyadan xoli, shaffof maydonga ko'chirdi.

EIZlarning infratuzilmasini rivojlantirishda "davlat–xususiy sheriklik" (DXSh) mexanizmlarining joriy etilishi investitsiyaviy jozibadorlikning yangi qirrasidir. Ilgari zonalarning infratuzilmasi faqat davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilgan bo'lsa, endi xususiy boshqaruv kompaniyalari jalb etilmoqda. Xususiy operatorlar investorlar uchun "Plug and Play" (ulanish va ishlash) tamoyili asosida tayyor ishlab chiqarish maydonlarini taqdim etmoqda. Huquqiy nuqtai nazardan, bu boshqaruv kompaniyalariga yer uchastkalarini uzoq muddatli ijaraga berish huquqining berilishi bilan mustahkamlandi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning Erkin iqtisodiy zonalarini 2026-yilga kelib shunchaki hududiy loyihalardan global investitsiya xablariga aylanmoqda. Bunga erishish uchun huquqiy daxlsizlik, soliq va bojxona shaffofligi hamda kapital bozori bilan integratsiya bo'yicha kompleks choralar ko'rilmogda. "Halol mehnat – xotirjam hayot" tamoyili EIZ rezidentlari uchun ham asosiy mezonga aylangan bo'lib, bu iqtisodiy erkinliklar kafolatlangan muhitdagina haqiqiy yuksalishga erishish mumkinligini tasdiqlaydi.